



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION G'OYLARNING O'RNI

Rustamova Surayyo G'ofurovna

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10083328>

Annotatsiya. Mazku maqolada oliy ta'lim muassalarida dolzarb masalalardan biri bo'lgan innovatsion g'oyalarning ta'limdagi o'rni ko'rib chiqilgan, innovatsion g'oyalarning qo'llanilish turlari aniqlangan, innovatsion g'oyalarning natijasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Oliy talim, innovatsion g'oyalar, dasturiy vositalar, innovatsion texnologiyalar.

Абстрактный. В данной статье рассматривается роль инновационных идей в образовании, которая является одной из актуальных проблем в высших учебных заведениях, определяются виды применения инновационных идей, а также раскрывается результат инновационных идей.

Ключевые слова. Высшее образование, инновационные идеи, программные средства, инновационные технологии.

Abstract. In this article, the role of innovative ideas in education, which is one of the current issues in higher education institutions, is considered, the types of application of innovative ideas are determined, and the result of innovative ideas is revealed.

Keywords. Higher education, innovative ideas, software tools, innovative technologies

Pedagogik faoliyatda amaliy va pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi. Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi. Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv



fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir faning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorliligi, turli tumanligi, amalga oshirilishi. Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-perseptiv), tafakkur (tushunchaviy nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyliligi, boshqaga ko'chishi), motivasiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivasiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi talabalarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha his-hayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi. Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi. Tarmoq talablariga "mijoz-server" arxitekturasi, Internet-navigatolar, tarmoq operasion tizimlari, telekommunikasiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi. Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funksional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi. Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differensiasiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funksionalilik, ishonchlilik. Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Internet resurslaridan ta'lim jarayonida foydalanish O'quv jarayonlarida Web-saytlardan foydalanishning ko'pgina yutuqlari mavjud. Shu bois bunday saytlarni yaratish va mazmunan yangilab boorish oliy ta'lim muassasasi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan o'quv muassasalari uchun bag'ishlangan saytlarni yaratish har bir ta'lim muassasasi oldida turgan birlamchi vazifalar qatoriga kiradi. Bunday saytlarni yararish uni o'rganish mobaynida internet tizimi bilan bog'liq omillarni hisobga olish lozim.

Bunday omillar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:



- dunyo bo'yicha internet xizmati imkoniyatlarining kengligi;
- web-saytlar xizmatidan foydalanishning oddiyligi;
- web-texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik;
- real vaqt masshtabida axborotlarga bo'lgan talablar;
- muassasa va xususiy shaxslarning o'zlari to'g'risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi;
- tarmoq ma'lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma'lumotlarni to'plash.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'naviy tashkil etishning asosiy shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o'qituvchi bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In Китайская лингвистика и синология (pp. 384-387).
2. Насирова, С. А. (2021). ВОЕННАЯ СИСТЕМА ДРЕВНЕГО КИТАЯ: ОБЗОР ТЕРМИНОВ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(Special Issue 1), 139-146.
3. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. Journal of Central Asian Social Studies, 2(04), 1-10

